

O'zbekiston 44-Butunjahon shaxmat olimpiadasining chempioni bo'ldi



O'zbekiston 44-Butunjahon shaxmat olimpiadasining chempioni bo'ldi

Hindistonning Chennay shahrida o'tgan 44-Butunjahon shaxmat olimpiadasining so'nggi 11-turida O'zbekiston terma jamoasi Niderlandiya terma jamoasi ustidan g'alaba qozonib, olimpiada chempioni bo'ldi. O'zbekiston tarixda birinchi marta shaxmat olimpiadasida oltin medalni qo'lga kiritdi.

Yana bir quvonarli xabar: O'zbekiston terma jamoasi ushbu olimpiada davomida biror marta ham mag'lubiyatga uchramagan yagona jamoa bo'ldi. Barcha yurtdoshlarimizni tarixiy g'alaba bilan tabriklayman!